

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



ASTRONOMIYA VA ASTROFIZIKA

O'QUV DASTURI

- Bilim sohasi:** 500000– Tabiiy fanlar, matematika va statistika
- Ta'lim sohasi:** 530000–Fizika va tabiiy fanlar
- Ta'lim yo'nalishi:** 60530500-Fizika

| | | | | |
|---|--|--|------------------------------|---------------------------|
| Fan/mavzu kodi AA1604 | O'quv yili 2026-2027 | Semestr 6 | Kreditlar 4 | |
| Fan/mavzu turi Majburiy | Ta'lim tili O'zbek, rus | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Astronomiya va astrofizika | 60 | 60 | 120 |
| 2. | I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda ilmiy dunyo qarashni shakllantirishni, ularda Koinot ob'ektlari, tabiat hodisalari to'g'risidagi ilmiy tasavvurlarni, osmon jismalarini va ular sisitemalarining fizik tabiatlari haqidagi bilim va tushunchalar bilan qurollanishni, astronomiyaning nazariy va amaliy ahamiyatlarini shakllantirish ko'nigmalarini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarni osmon jismalarini o'rganish, ularning tizimlarida kechadigan barcha jarayon va hodisalarning fizik mohiyatlarini ilmiy talqin etish, ularning evolyusiyasini mavjud qonunlar asosida o'rganish hamda tahlil qilishdan iborat. | | | |
| | II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) | | | |
| | II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: | | | |
| 1-mavzu. Astronomiya va astrofizika faniga kirish | Astronomiya va astrofizika predmeti, uning bo'limlari va boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Astronomiyaning rivojlanish tarixi va unda Yaqin sharq, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining buyuk xizmatlari. Yoritgichlarning ko'rinma holatlari. Yulduz turkumlari. Quyosh, Oy, Sayyoralar va yulduzlarning ko'rinma harakatlari. | | | |
| 2-mavzu. Osmon sferasi | Osmon sferasining asosiy nuqta, chiziq va aylanalari. Quyoshning yillik ko'rinma harakati. Ekiptika. Gorizontal, ekvatorial va ekliptikal koordinatalar sistemasi. Olam qutbining balandligi va joyning geografik kenglamasi orasidagi bog'lanish. | | | |
| 3-mavzu. Turli geografik kenglamalarda osmon sferasining sutkalik ko'rinma harakati. | Turli geografik kenglamalarda osmon sferasining sutkalik ko'rinma aylanishi. Yoritgichlarning kulminasiysi va kulminasiya balandliklari. Joyning kenglamasini taqribiy hisoblash. Olam shimoliy kutbining gorizontdan balandligi haqidagi teorema. Refraksiya. Oqshom va oq tunlar. | | | |
| 4-mavzu. Sferik va paralaktik uchburchaklar. | Sferik uchburchak va uning | | | |

asosiy formulalari. Paralaktik uchburchak, osmon koordinatalarini almashtirish formulalari.

5-mavzu. Vaqtini o'Ichash asoslari.

Vaqtini o'Ichash asoslari. Haqiqiy va o'rtacha Quyosh vaqtлari. Vaqt tenglamasi. Mahalliy va Dunyo vaqtлari. Poyas va dekret vaqtлari. Quyosh kalendarlari. Oy kalendarlari. Xijriy kalendarlar. Quyosh-Oy kalendarlari va muchal haqida tushuncha. U. Xayyom taqvimi.

6-mavzu. Sayyoralarining ko'rinma va haqiqiy harakatlari

Sayyoralarining yulduzlar foniдagi harakati. Olam tuzilishining geosentrik va geliotsentrik nazariyasi. Planetalarining konfiguratsiyalari, siderik va sinodik davrlari. Kepler qonunlari. Butun olam tortishish qonuni. Kepler va Nyutonning umumlashgan qonunlari. Quyosh sistemasi jismlarning massalarini hisoblash.

7- mavzu. Yoritgichlarning sutkalik va gorizontal paralliksi.

Yoritgichlarning sutkalik va gorizontal paralliksini hisoblash. Quyosh sistemasi jismlarigacha bo'lgan masofalarni aniqlash. Astronomiyada uzunlik o'Ichov birliliklari.

8-mavzu. Oy harakati va fazalari.

Oy harakati va fazalari. Oyning siderik va sinodik davrlari. Yer sirtining ko'tarilishi va pasayishi (Oy va Quyosh ta'sirida). Quyosh va Oy tutilishlari. Tutilish shartlari. Saros.

9- mavzu. Quyosh haqida umumiyy ma'lumot.

Quyosh haqida umumiyy ma'lumot. Fotosfera va undagi ob'ektlar. Quyoshning dog'li faoliyati. Xromosfera va uning ob'ektlari. Quyosh toji va uning radio nurlanishi, fizik tabiat. Quyoshning ichki tuzilishi va aktivligi.

10-mavzu. Quyosh sistemasi. Yer tipidagi sayyoralarining fizik tabiat.

Merkuriy, Venera, Yer va Marsning fizik tabiat. Marsning yo'ldoshlari. Yupiter, Saturn, Uran va Neptunning fizik tabiat, ularning halqalari va yo'ldoshlari. Kichik sayyoralar. Asteroidlar. Kometalar va ularning dumlari. Meteorlar, bolidlar. Meteor "yomg'irlari" va parchalangan kometalar orbitalari. Meteoritlar.

11-mavzu. Yulduzlarga masofalarni hisoblash usullari.

Yillik parallaks. Yulduzlarga masofalarni hisoblashning trigonometrik usuli. Spektral parallaks haqida tushuncha. Ko'rinma yulduz kattaligi. Absolyut yulduz kattaligi.

12-mavzu. Yulduzlar fizikasi.

Yulduzlarning asosiy xarakteristikalari. Yulduzlarning spektral sinflari. Yulduzlarning temperaturasi va yorqinligi. Spektr – yorqinlik diagrammasi. Yulduz o'Ichamlarini aniqlash usullari. Yulduzlarning massalarini aniqlash. Radius-yorqinlik-massa diagrammasi. Yulduzlarning massalariga ko'ra

evolyutsiyasi.

13-mavzu. Qo'shaloq va fizik o'zgaruvchan yulduzlar.

Vizual va tutiluvchi qo'shaloq yulduzlar. Qo'shaloqlarning massalarini hisoblash. Spektral qo'shaloq yulduzlar. Fizik o'zgaruvchan yulduzlar turlari. Pulsatsiyalanuvchi o'zgaruvchilar. Sefeidalar. Eruptiv o'zgaruvchi yulduzlar. Yangi va o'ta yangi yulduzlar. Pulsarlar (neytron yulduzlar). Qora o'ralar haqida tushuncha. Yulduzlar evolyusiyasi.

14-mavzu. Galaktikamiz, uning tuzilishi va tarkibi.

Yulduzlarning galaktik konsentratsiyasi. Somon yo'li. Bizning galaktikamiz: tuzilishi va tarkibi. Yulduzlarning sharsimon va tarqoq to'dalari. Diffuz gaz va chang tumanliklar. Planetar tumanliklar. Diffuz gaz va chang tumanliklar. Planetar tumanliklar. Galaktik koordinatalar sistemasi.

15-mavzu. Galaktikadan tashqi astronomiya.

Tashqi galaktikalar: ularning sinflari (spiral, elliptik va noto'g'ri). Radiogalaktikalar haqida tushuncha. Osmon jismlarining paydo bo'lishi. Qizilga siljish. Tashqi galaktikalargacha masofalani hisoblash. Xabbl qonuni. Galaktikalar to'dalari. Kvazarlar haqida tushuncha.

IV. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Osmon sferasi, uning asosiy nuqta, chiziq va aylanalariga doir masalalar yechish.
2. Osmon jismining koordinatalari va ular orasidagi bog'lanishlarni topishga doir masalalar yechish.
3. Yoritgichlarning kulminatsiyasi hamda kulminatsiya balandliklarini topishga doir masalalar yechish.
4. Yoritgichlarning refraksiyasiga doir masalalar yechish.
5. Sferik va paralaktik uchburchaklarning asosiy formulalariga doir masalalar yechish.
6. Haqiqiy va o'rtacha quyosh vaqt hamda vaqt tenglamasi doir masalalar yechish.
7. Maxalliy, poyas, dunyo va dekret vaqtlariga doir masalalar yechish.
8. Planetalarning konfiguratsiyalari hamda davrlarini hisoblashga doir masalalar yechish.
9. Yoritkichlarning sutkalik va gorizontal parallellarini hisoblashga doir masalalar yechish.
10. Quyosh sistemasi jismlarining massalarini, ularning o'lchamlarini va ularghacha masofalarni hisoblashga doir masalalar yechish.
11. Sayyoralar va Quyosh sistemasi kichik jismlari harakatiga doir masalalar

yechish.

12. Yulduzlargacha bo‘lgan masofalarni aniqlashga doir masalalar yechish.
13. Yulduzlarning massalari, o‘lchamlari (radiuslari) va zinchliklarini aniqlashga doir masalalar yechish.
14. Yulduzlarning xususiy harakatlari va fazoviy tezliklarini aniqlashga doir masalalar yechish.
15. Yulduzlarning yorqinligini va temperaturalarini aniqlashga hamda Doppler effekti, Xabbl qonuniga doir doir masalalar yechish.

V. Kurs ishi bo‘yicha ko‘rsatmalar

Talaba tomonidan kurs ishining bajarilishi muhim bosqich hisoblanadi, chunki ularda mustaqil ijodiy ishlashni shakllanishiga, ilmiy tadqiqot elementlarini anglashga hamda ilmiy adabiyotlarni o‘qish va tahlil qilishga yordam beradi. Talaba kurs ishi tizimini bajarish jarayonida undan ham murakkab bo‘lgan vazifani – bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun, nazariyalarni anglash, ularni umumlashtirish va amaliyotda qo‘llab mustaqil ilmiy - tadqiqot faoliyatini boshlashga tayyorgarlik ko‘radi. Kurs ishini tayyorlash talabada axborotlarni analitik fikrlashni rivojlantirishga va oqibat natijasida tayyor mutaxassis bo‘lib yetishishiga olib kelishi kerak. Kurs ishi fanning turli sohalari bo‘yicha amaliyotda olgan bilimlarini mustahkamlashni, yanada chuqurlashtirishni va umumlashtirishni talab etadi. Har bir tanlangan kurs ishi mavzusi ilmiylikni, zamonaviylikni talab qiladi, chunki har bir topshiriqda yangilik elementlari bo‘lishi lozim. Kurs ishini foydali omillaridan biri talabaning qiziqishi va qobiliyatiga qarab mavzu tanlash imkoniyatini berish hisoblanadi.

Kurs ishi mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Amaliy astrofizika oldida turgan muammolar va yirik loyihalar
2. Yorug‘likni o‘lhashda qo‘llaniladigan kattaliklar va asboblar
3. Nurlanish qonunlari va energiya uzatish yo‘llari
4. Zamonaviy yorug‘lik qabul qilgichlari
5. Teleskoplarning turlari va montirovkalari
6. Teleskoplarning asosiy xarakteristikalar
7. Kosmik teleskoplar va kosmik loyihalar
8. Interferometriya asoslari
9. Fotometrik sistemalar va optik filtrlar
10. Spektral asboblar va ularning parametrlari
11. Radiodiapazondagi nurlanish qabul qilgichlari
12. PZS asboblarining turlari, ularning tuzilishi va astronomiyadan ulardan foydalanish

13. Aburratsiyalar va ularni bartaraf etish yo'llari.
14. Astronomik tasvirlarni qayta ishlash usullari va dasturlari
15. Yulduzlar o'chamlarini va massalarini aniqlash usullari
16. Quyoshning ichki tuzilishi va atmosferasi
17. Quyoshning umumiy tasniflari va uning atrofidagi magnit maydon
18. Quyoshdag'i chaqnashlar va Quyosh Yer aloqlari.
19. Quyosh sistemasi sayyoralarida seysmik aktivlik
20. Yulduzlar aro muhitning hususiyatlari
21. Sefeida va yangi yulduzlar masofa birliklari sifatida
22. Galaktikalar turlari va ularning sinflari
23. NII sohalari va yulduzlarning tug'ilishi sohalari.
24. Galaktikalar to'dalari hususiyatlari.
25. Qora modda va qora energiya muammolari

VI. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ta'limi tayyorlashida muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzulami chuqur o'rganish;
- faol va muammoni o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- internetdan foydalanish; masofaviy (distansion) ta'lif.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lifning mavzulari:

1. Olam tuzilishi haqida zamonaviy tasavvurlarni shakllantirish.
2. Yulduz va o'rtacha quyosh vaqtлari orasidagi bog'lanish.
3. Quyoshning yi llik ko'rinma harakati.
4. Quyosh sutkalik harakatining yildavomida o'zgarishini geografik kenglamaga bog'liqligi
5. Oqshom va oq tunlar.
6. Oy va Quyosh hijriy kalendarlarining tuzilishi va xatoliklarini topib o'rganish.
7. Muchal haqida tushuncha.
8. Sferik uchburchakning asosiy fo'rmulalari
9. Parallaktik uchburchak va koordinatalarni almashtirish.

10. Sayyorlarning orbita elementlari.
11. Yoritkichlarni chiqish va botish momentini hisoblash
12. Astronomiyada uzunlik o‘lchov birliklari.
13. Yerning o‘lchamlarini aniqlash.
14. Saros.
15. Yer sirtining ko‘tarilishi va pasayishi (Oy va Quyosh ta’sirida).
16. Dunyoning yirik astronomik observatoriyalari.
17. Teleskoplar turlari va tuzilishi.
18. Nurlanish qonunlari spektral qonuniyatlar va osmon jismlari tabiatini o‘rganishda ularning qo‘llanilishi.
19. Ekzosayyoralar.
20. Yulduzlarining ichki energiya manbalari, ularning evolyutsiyasi va modellari (ichki tuzilish) haqida tushuncha.
21. Yulduzlarining xususiy harkatlari va nuriy tezligi.
22. Yulduzlarining galaktik konsentratsiyasi.
23. Yulduz assosatsiyalari.
24. Galaktikalarning Vokulyor klassifikatsiyasi.
25. Galaktikalarning Van der Berg klassifikatsiyasi.
26. Galaktikalar Morgan klassifikatsiyasi.
27. Elmegrinning spiral qo’llar kalssifikatsiyasi.
28. Kosmogoniya asoslari.
29. Kosmologiya elementlari.
30. Kvazaglar. Blazarlar.

3. VII. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- Astronomiya va astrofizika fani va uning barcha bo‘limlari hamda oliy matematika, informatika va axborot texnologiyalari, kimyo, biologiya, geografiya kabi tabiiy-ilmiyfanlar bilan uzviy bog‘lab o‘qitish metodikasi qonuniyatlariga qida tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim)

- Astronomiya va astrofizika fanini o‘zlashtirgan talaba koinot jismlari va uning turlari xaqida fenomenologik bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladi, yangi axborot texnologiyalarini qo‘llab, olgan bilimlarini pedagogik va ilmiy faoliyatini olib borish kabi *bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma)*.

- Astronomiya va astrofizika fanini o‘qitishda ta’lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo‘llanmalar, virtual laboratoriylar, internet ma’lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o‘quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo‘yicha ma’lumotlar jamlamasidan foydalilanadi. Mustaqil ta’lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, disskusiya, rolli o‘yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o‘qitilishi amalga oshirishi va

| | |
|----|--|
| | o‘quvchilar baholay olish to‘g‘risida malakalariga ega bo‘lishi kabi <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak (malaka)</i> |
| 4. | <p style="text-align: center;">VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg‘ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihamar; • jamaoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihamar; • ijodiy ishlar yaratish |
| 5. | <p style="text-align: center;">IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy ishni topshirish.</p> |
| 6. | <p style="text-align: center;">X. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tillaboyev A.M., Nurmatov Sh.E., Rajapova A.I. Astronomiya kursi (Umumiy astronomiya). Ch.: “Yangi chirchiq prints”, 2023 y. 2. Kamolov I.R., Kamalova D.I., Sayfullayeva G.I., Sattarov A.R., Tillaboyev A.M. Astronomiya kursi fanidan amaliy mashg‘ulotlar “Umumiy astronomiya”. N., Tilsim nashriyoti 2023 y. 3. Tillaboyev A.M., Kutlimuratov S.Sh., Nurmatov Sh.E., Burxonov O.A. Astronomiya kursi 1,2 (Astronomiya kursidan laboratoriya ishlari). Ch.: “Yangi chirchiq prints”, 2023 y. <p style="text-align: center;">XI. Qo‘srimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 4. Кононович Е., Морозов В. Курс обще астрономии. М. Наука, 2003 г. 5. М.М.Дагаев. «Сборник задач по астрономии» М., Просвещение. 1980 г. 6. Воронсов-Веляминов Б.А. “Сборник задач и практических упражнений по астрономии” М.Наука. 1997 г. 7. Шерданов Ч., Мамадазимов М., Саттарова Б., Илясов С. Умумий астрономия (космонавтика асослари) курсидан амалий машгулотлар. Т., ТДПУ, 2013. <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. cspi.uz 2. unilibrary.uz 3. http://www.edu.uz 4. http://www.uzedu.uz 5. http://www.gov.uz |

| | |
|----|--|
| | <p>4. www.pedagog.uz 5. www.apkpro.ru/content/view 6. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten 7. www.relarn.ru/conf/conf2007 8. http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/ 9. http://www.allmath.ru/ 10. http://www.ziyonet.uz/ 11. http://window.edu.ru/window/ 12. www.astronet.ru 13. www.astrin.uz</p> |
| 7. | Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “ <u>24</u> ” <u>08</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan |
| 8. | <p>Fan/modul uchun ma'sullar:</p> <p>A.M.Tillaboyev - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Fizika kafedrasи mudiri, dotsent, p.f.f.d. (PhD)</p> <p>S.Sh.Kutlimuratov - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Fizika kafedrasи dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD).</p> |
| 9. | <p>Taqrizchilar:</p> <p>I.U.Tadzhibayev – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Fizika kafedrasи professor v.b., f-m.f.d.</p> <p>T.A.Orlova – Toshkent davlat pedagogika universiteti, Fizika va uni o'qitish metodikasi kafedrasи v.b. professori, p.f.d.</p> |